

Kitob geologiya milliy tabiat bog'i D/M binosida fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'tkazilgan davra suhbat.

BAYONNOMASI

Shahrisabz shahar

2025-yil 29 aprel

Raislik etuvchi:

Kitob geologiya milliy tabiat
bog'i D/M boshlig'i
N.Abdiev

Ma'ruzachilar: Shahrisabz tumanlararo
iqtisodiy sudi raisi Z.Eshmirzayev,
sudyasi B.Xolmanov

Ishtirok etdilar: Fuqarolar va tadbirkorlik
subyektlari, **jami 15 nafar**

KUN TARTIBI

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-fevraldagi "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi O'RQ-1032-sonli Qonunining mazmun-mohiyati;

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-martdagi "Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-1047-sonli Qonunining mazmun-mohiyati;

"Korrupsiya - jamiyat taraqqiyoti kushandasi".

Raislik etuvchi yig'ilishni ochib, ma'ruza uchun so'zni Shahrisabz tumanlararo iqtisodiy sudining raisi Z.Eshmirzayevga berdi.

Ma'ruzachi: Keyingi yillarda mamlakatimizda energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun zarur bo'lgan energiyaning hosil qilinishi va sarflanishini barqarorlashtirishga hamda O'zbekiston Respublikasi hududida chet el tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilishni soddalashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Biroq energiya resurslari iste'molchilari tomonidan to'lov intizomi darajasining pastligi issiqlik va elektr energiyasini yetkazib beruvchilarning moliyaviy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan issiqlik va elektr energiyasini yetkazib beruvchilar tomonidan iste'molchilarga energiya resurslari barqaror yetkazib berilishini hamda sifatli xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash uchun yetkazib berilgan energiya uchun to'lov bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida undirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Bundan tashqari «Davlat boji to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida chet el tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilganlik uchun davlat boji to'lanishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga akkreditatsiyaning qaysi davri uchun davlat boji to'lanishi aniqlashtirilmoqda.

Ushbu Qonun bilan "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishincha issiqlik va elektr energiyasini yetkazib berish yuzasidan xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha qarzlarni undirish to'g'risidagi da'volar, arizalar va shikoyatlar bilan fuqarolik ishlari bo'yicha va iqtisodiy sudlarga murojaat qilinganda issiqlik va elektr energiyasini yetkazib

beruvchilar davlat bojini to'lashdan ozod etilishini, shuningdek ularning talablarini qanoatlantirish to'liq yoki qisman rad etilgan taqdirda mazkur davlat bojini ushbu yetkazib beruvchilardan undirish imkoniyatini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Shuningdek chet el tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini O'zbekiston Respublikasi hududida akkreditatsiya qilishda davlat bojini to'lash har bir yil uchun amalga oshirilishini aniqlashtiruvchi o'zgartirish kiritilmoqda.

Mazkur Qonun iste'molchilar tomonidan qarzlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashga, aholining sifatli issiqlik va elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga, shuningdek chet el tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini O'zbekiston Respublikasi hududida akkreditatsiya qilganlik uchun davlat boji to'lash tartibini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sudlov faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar fuqarolarning o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan sudlarga murojaat qilishini liberallashtirish, umuman odil sudlovga erishish darajasini oshirish, shuningdek sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash imkonini berdi.

Natijada ariza berish, ishda masofadan ishtirok etish, sud hujjatlarini olish va ishlarning ko'rilishi haqida ma'lumot olish kabi xizmatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining interaktiv xizmatlar portalini orqali elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga bugungi kunda videokonferensaloqa rejimida o'tkaziladigan sud majlislarida mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish orqali protsessual qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun ko'rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko'rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalaniladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlayotgan sud ushbu shaxslarning kelgan-kelmaganligini tekshiradi va kelgan shaxslarning shaxsini aniqlaydi. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan shaxslarning shaxsi ishni ko'rayotgan sud tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda aniqlanadi.

Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi, shuningdek guvohning qasamyodi audio- va videoyozuv orqali qayd etiladi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun ko'rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko'rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalaniladi.

Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi audio- va videoyozuv orqali qayd etiladi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun ko'rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko'rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalaniladi.

Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi audio- va videoyozuv orqali qayd etiladi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi.

Raislik etuvchi keyingi ma'ruzachi Shahrisabz tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi B.Xolmanovga berdi.

Ma'ruzachi: Har qaysi davrda ham korrupsiya o'z ijtimoiy xavfli xususiyati va darajasi

bilan jamiyat hayotida alohida ajralib turgan. Korrupsiya har qanday sharoitga moslashuvchan xususiyatga egaligi uchun unga nisbatan qarshi samarali kurashish doimo jamiyat rivojining barcha bosqichlarida ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Korrupsiya so'zi asli lotinchadan olingan bo'lib, singan, buzilgan, sotib olingan, pora evaziga og'dirish, evrilish degan ma'nolarni anglatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisidagi "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi ma'ruzasida "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur" deb ta'kidlagan edilar.

Shulardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunini 2017-yil 3-yanvarda qabul qilindi. Qabul qilingan ushbu Qonunning 3-moddasida korrupsiyaga "korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish" deb, ta'rif berilgan.

Korrupsiyaning mavjudligi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga, davlat hokimiyatining xalq oldida obro'sizlanishiga, jamiyatda ishonchsizlik hissi paydo bo'lishiga (ortishi), xalqaro miqyosida davlat to'g'risida salbiy tasavvurni paydo bo'lishiga olib keladi.

Korrupsiyaning oldini olish, kamaytirishning samarali yechimi sifatida mansabdor shaxslar va xodimlarni maqbul oylik bilan ta'minlash, ularning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarini da'vomiylashtirish, davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, mavjud takrorlanuvchi vakolatlarni bartaraf etish, korrupsion holatlarni vujudga keltiradigan tashkilotlarni barchasida elektron xizmat ko'rsatish tizimini joriy qilishni ko'rsatish mumkin.

Davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida xizmat qiluvchi har bir xodim, har bir fuqaro korrupsiyaga qarshi murossasiz kurashsa, Yurtboshimiz aytganlaridek erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga qurishga erishamiz.

Ma'ruzachi tomonidan davra suhbatl ishtirokchilarini qiziqtirgan savollarga javob berildi.

Raislik qiluvchi

Bayonnoma yurituvchi



N.Abdiev

SH.Xoliqov